



GULXANIY ASARLARINING TIL XUSUSIYATLARI

Qo'ziyoyeva Go'zal Saidrasul qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat

O'zbek tili va Adabiyoti Universiteti

Filologiya va tillarni o'qitish: o'zbek tili

yo'nalishining III kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6693601>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

kelishik qo'shimchalari, sinonimlik, badiiy san'atlar, ko'makchilar, bog'lovchilar.

Kirish.

O'zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida tafsiliy ma'lumotlarga ega emasmiz. XVIII asrning so'nggi choragi va XIX asrning birinchi yarmi Qo'qon adabiy muhitida qalam tebratib, o'zbek badiiy nasri taraqqiyotiga jiddiy hissa qo'shgan Gulxaniy nomi bir qator tazkira va tarixiy asarlarda zikr etilgan. Gulxaniy haqida ayrim ma'lumotlar Fazliy Namangoniyning "Majmuat ush-shuaro" tazkirasida uchraydi. Manbalardagi ma'lumotlarga tayanib aytish mumkinki, bo'lajak ijodkor asli tog'li Qorategindan Qo'qonga kelib oila qurgan, taxminan 1770–80-yillar atrofida dunyoga kelgan, og'ir iqqisodiy qiyinchiliklarda kun kechirgan. Ba'zi manbalar uning Namangan madrasalarining birida ma'lum muddat tahsil olganligidan darak beradi.

Gulxaniy lirikasiga nazar tashlar ekanmiz, shoirning adabiy an'anaga, g'azalchilik an'anasiga rioya qilganini darhol sezamiz. Unda lirik qahramonoshiqning qalb

ABSTRACT

Ushbu maqolada Gulxaniyning "Zarbulmasal" asaridan olingan parchalar orqali asarning til xususiyatlari tahlilga olindi. Asarda badiiy san'atlar va kelishik qo'shimchalari va ularning tahlilga olingan. O'sha davr til xususiyatlari va badiiy san'atlarda foydalanilgan qo'shimchalar tahlili ochib berilgan.

alamlari, ruhiy kechinmalari, ichki tug'yonlari, mashuqaning o'jarligi, vafosizligi, yoriga bergan ozorlari tasvirlanadi. Oshiq hamisha yor visoliga intiladi, murod hosil qilolmaydi, g'amiga botadi. Shoir lirik qahramonining zabun holini ko'rsatish asnosida ba'zi-ba'zida bahorning go'zal manzarasini ham chizib o'tadi:

Dar bahoron bahri taz'in novaro'soni chaman,

Mekashand dar go'shho durri xushob az chashmi man.

(Bahor chamanining kelinchaklari o'zlariga zeb-ziynat berish uchun quloqlariga mening ko'z yoshlarimdan xalqa taqib oladilar).

Metadologiya.

"Zarbulmasal"da yetakchi mazmun bilan mantiqan uzviy bog'lanib ketgan o'ndan ortiq nasriy va nazmiy masala, qissa va hikoyatlar mavjud. Bu mo'jaz badiiy asarlar, asosan, axloqiy ta'limiy yo'nalishda bo'lib, halollik, to'g'rilik, olijanoblik, mehr-muhabbat, vafo va sadoqat g'oyalarini olg'a suradi, xasislik, manmanlik, befarosatlik,



johillik, sotqinlik kabi salbiy belgilarni qoralaydi. Xususan, “Maymun bilan Najjor” va “Toshbaqa bilan Chayon” kabi masallar yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan.

Zikr etilgan masallarning birida hayotiy lavha orqali “bilmagan, o’rganmagan va aqling yetmaydigan ishga hovliqib urinma, avval hunarni yaxshilab egalla, shunda pand yemaysan!” deb o’git berilsa, ikkinchisida hayotda do’st tanlashda nihoyatda ehtiyot bo’lishlikka, yomonga aslo yaqinlashmaslikka da’vat etiladi. “Zarbulmasal”dagi bu kabi axloqiyta’limiy yo’nalishdagi masallardan farqli o’laroq “Tuya bilan Bo’taloq” masalida sof ijtimoiy mavzu badiiy intihosiga yetkazilgan. Gulxaniy ham o’zbek, ham tojik tillarida bemalol qalam tebratgan. Fazliy ta’biri bilan aytganda, u “takallum qilur turkiyu erur she’r maydonining forisi” (ot chopari)dir. Muhammad Sharif avallari o’z taxallusini Gulxaniy deb atab kelgan, keyinchalik esa, ma’lum sabablarga ko’ra, uni Jur’at so’zi bilan almashtirgan:

Bu Jur’at ki avval edi Gulxaniy,

Erur barcha haz’en fani.

Muxammad Sharifning o’ziga Gulxaniy taxallusini olim sababini shoir Fazliy o’z tazkirasida quyidagina izohlagan edi:

Xusho Gulxani shoiri pulfan ast,

Chi gulxan, ki zebotdar az gulshan ast.

Zi devonaxo’iyu otashfani,

Taxallus nihoda ba xud gulxani.

Adabiyotlar tahlili

XVIII asr – XIX asr o’zbek mumtoz adabiyotida XVIII asrning 70- yillarida Qo’qonda tavallud topgan Gulxaniyning o’ziga xos o’rni bor. Uning bizgacha 12 ta g’azal, Amir Umarxonga bag’ishlangan qasidasi va “Zarbulmasal” asari yetib kelgan. O’zbek xalqi, shuningdek, ijodkorning donishmandligi va zukkoligi namoyon bo’lgan “Zarbulmasal” asarining

6 ta qo’lyozma va 10 dan ortiq bosma nusxalari mavjud. Uning qadimiy qo’lyozmasi 1885-yilda ko’chirilgan, 1951, 1958, 1960-yillarda chop etilgan. “Zarbulmasal” arabcha “zarb” va “masal” so’zlarining birikishidan hosil bo’lib, masal keltirib so’zlashmoq mazmunida ishlatiladi. “Zarbulmasal” – majoziy asar, unda 400 dan ziyod maqol va masallar hamda hikmatli so’zlar qo’llangan.

Gulxaniyning “Zarbulmasal” asarida keltirilgan “ Maymun bilan najjor” masalidan olinganparchaning til xususiyatlari.

Asarda qaratqich va tushum kelishiklari qo’shimchalarining to’liq shakllaridan tashqari ularning har ikkala kelishikka xos bo’lgan qisqa –n shakli ham uchraydi:

Jon sotib o’zin o’yin etardi tan,

O’qur edi qissai hubbul-vatan.

Bu misralarda qaratqich kelishigidagi so’z qaralmish –uy, ot, ga bog’lanib kelgan bo’lsa, tushum kelishigidagi so’z etardi tan-fe’lga bog’lanib kelayotganligini ko’rishimiz mumkin.

Jo’nalish kelishigining qo’shimchasi –g’a, -ga, -qa shakllaridan tashqari - a shaklidan ham foydalanilganligini ko’rishimiz mumkin.

O’zga toqqa borib yana kesti yag’och,

Yormog’i makrina, qildi iloj.

Bundan tashqari asarda ravishdoshning –ib qo’shimchasi qofiya talabiga ko’ra –I shaklida ham qo’llangan:

Elina navkissalarin qistari,

Rasm edi Najjor yag’och istari.

Bundan tashqari bila so’zi ham bog’lovchi, ham ko’makchi vazifasida keladi:

bog’lovchi vazifasida:

Egdi u dil go’shasining pardasin,

Belga suqib tesha bila arrasin.

ko’makchi vazifasida:

Ketti hunar shavqi bila g’ussasi,



Tushtin yag'och ayrisiga dumchasi.
Asarda qo'shimchalar bilan ko'makchi
so'zlarning sinonimik qo'llanishi ham
kuzatilgan bo'lib, ular quyidagicha
ifodalangan:
Jo'nalish kelishigi qo'shimchasi sori
ko'makchisi bilan:
Bordi o'shal toqqaki mavquf edi,
Ezgu yag'ochlar anga ma'ruf edi.
Bolta bila bir uchini yordi ul,
Pona qo'yib tesha sori bordi ul.
O'rin-payt kelishigi qo'shimchasi ichra
ko'makchisi bilan:
Bore di Kashmird navohisida tog',
Bog'i eram rashkidin ko'ksida dog'.
Aydi: "Ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbni boshina kiysang nasbdur".
-dek qo'shimchasi kabi ko'makchisi bilan:
Zulf kabi sunbuli xushbo'ylari,
Rohatijon erdi oqar sulari.
Mindi yag'och ustiga Najjordek,
Qosibi purkardan purkordek.
Ravishdoshning -g'ali affiksi -ish uchun
shakli bilan xosil qilgan:
Jahd qilib turdi ravon borg'ali,
Ya'ni yag'och qolmishini yorg'ali.
Bu baytda borg'ali, yorg'ali ravishdoshi
borish uchun, yormoq uchun tarzida ham
qo'llanishi mumkin:
Sifatdoshning -r qo'shimchasi -sh , mak
shakllari bilan xosil qilgan:
Elina navkissalarin qistari,

Rasm edi Najjor yag'och istari.
Baytdagi istari so'zini istashi, istamog'i
shakllari ham qo'llanishi mumkin;
O'rin-payt kelishigi jo'nalish kelishigi bilan:
Borib anga kesdi yag'och reshasin,
Qo'ydi o'shal yerda unutib teshasin.
Asarda o'xshatish sanati quyidagi vositalar
yordamida yuzaga kelgan:
kabi ko'makchisi yordamida:
Zulf kabi sunbuli xushbo'ylari,
Rohatijon erdi oqar sulari.
-dek qo'shimchasi yordamida:
Mindi yag'och ustiga Najjordek,
Kosibi purkardai purkordek.
Asarda jonlantirish sanatan ham unumli
foydalanilgan. Asarda maymun xuddi
insonlar singari harakat qiladi, gapiradi va
duradgorlik kasbi haqida fikr yuritadi:
Aydi: "Ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbni boshina kiysang nasbdur".
Xulosa
Gulxaniy uslubining ravon va ommaga
tushunarli bo'lishi uchun xalq og'zaki
ijodidan samarali foydalangan. Buni
tahlillar natijasida anglashimiz mumkin. Bu
davrda badiiy asarlarda xalq so'zlashuv
tilidan ko'proq foydalanilganligini ko'rish
mumkin. Asar Grammatik jihatdan bugungi
o'zbek tili qoliplariga moslasha borgan,
davrlar o'tib shakllangan bugungi kundagi
til shakllangan.

References:

1. Gulxaniy "Zarbulmasal" "O'qituvchi nashiryoti" Toshkent – 1972.
2. "Ma'naviyat yulduzlari" (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999
3. "O'zbek adabiyoti tarixi" (XV11-X1X asrning birinchi yarmi) fanidan ma'ruzalar matni Nukus 2012
4. Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov O'zbek tili tarixi. Toshkent 2009. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashiryoti".
5. A. Muxtorov, U. Sanaqulov, O'zbek adabiy til tarixi. Toshkent . O'qituvchi 1995.
6. Nurmanov A., Sobirov A., Yusupova Sh. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". T.: "Sharq". 2002
7. B. Abdushukurov O'zbek tili tarixi. "Nodirabegim" nashiryoti. Toshkent 2021